“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



Raqamli aktivlarning vorislik tartibida o‘tishining fuqarolik-huquqiy muammolari

Muxriddinxo‘ja Rashidxo‘jayev,
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: mukhriddinkhujarashidkhujaev@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli aktivlarning (kriptovalyutalar, tokenlar, virtual mulk, kontentlar, ijtimoiy tarmoq akkauntlari) huquqiy tabiati, raqamli aktivlarning toifalari va ularni meros qilib qoldirish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli vorislikni rasmiylashtirishda notariatning ro‘li, vafot etgan shaxsning raqamli aktivlarini boshqarish va akkauntlariga kirish huquqini ta’minlashning huquqiy mexanizmlari va bu jarayondagi mavjud ziddiyatlar ko‘rib chiqilgan. Xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Калит сўзлар. raqamli aktiv, meros huquqi, kriptovalyuta, virtual mulk, notariat, raqamli vasiyatnoma, shaxsiy daxlsizlik, universal vorislik

Аннотация. В данной статье рассматривается правовая природа цифровых активов (криптовалют, токенов, виртуальной собственности, контента, аккаунты в социальных сетях). В исследовании рассматриваются роль нотариуса в оформлении цифрового наследия, правовые механизмы управления цифровыми активами умершего лица и обеспечения доступа к его учетным записям, а также существующие в этом процессе противоречия. На основе международного опыта выдвинуты предложения по совершенствованию законодательства Узбекистана.

Ключевые слова. цифровой актив, наследственное право, криптовалюта, виртуальная собственность, нотариат, цифровое завещание, неприкосновенность частной жизни, универсальное правопреемство

Annotation. This article examines the legal nature of digital assets (cryptocurrencies, tokens, virtual property, content, social media accounts) are analyzed. The study examines the role of notaries in formalizing digital inheritance, the legal mechanisms for managing a deceased person's digital assets and securing access to their accounts, and the existing conflicts in this process. Based on international experience, proposals have been put forward

for improving Uzbek legislation.

Keywords. digital asset, inheritance law, cryptocurrency, virtual property, notary, digital will, privacy, universal succession

KIRISH

Global raqamli transformatsiya sharoitida fuqarolik muomalasining obyektlari tarkibi sifat jihatidan o‘zgardi. Bugungi kunda an’anaviy moddiy ashyolar bilan bir qatorda raqamli aktivlar – kriptovalyutalar, domen nomlari, ijtimoiy tarmoqlar va bulutli saqlash tizimlaridagi ma’lumotlar katta iqtisodiy va ma’naviy qiymat kasb etmoqda. Biroq amaldagi meros huquqi normalari asosan moddiy dunyoga mo‘ljallangan bo‘lib, raqamli obyektlarning virtual tabiati, anonimligi va texnik murakkabligini to‘liq qamrab olmaydi. Bu esa merosxo‘rlarning huquqlarini himoya qilishda jiddiy bo‘shliqlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli aktivlar o‘zining texnik murakkabligi va doimiy boshqaruvni talab qilishi (masalan, kripto-portfellar) sababli, ularga nisbatan nafaqat universal vorislik, balki “Raqamli ishonchli boshqaruv (Digital Trust) modelini qo‘llash kerakligini nazarda tutmoqda. Bu model merosxo‘rlarga aktivni texnik jihatdan boshqarishda professional yordam olish imkonini beradi [3].

O‘zbekistonda ushbu soha yuridik jihatdan yaqin yillarda dolzarb mavzuga aylangan bo‘lsa-da, IT texnologiyalari rivojlangan mamlakatlarda bu tendensiya bir necha o‘n yillikdan beri rivojlanmoqda. Masalan, 2011-yilda Buyuk Britaniyada (Goldsmiths, London universiteti) Joriy va ijtimoiy texnologiyalar Markazi (CAST) Buyuk Britaniyada internetdan foydalanish bo‘yicha “Generation Cloud” nomli tadqiqot o‘tkazdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Britaniyaliklar “Cloud” fayllarida kamida 2,3 milliard funt sterling qiymatidagi raqamli aktivlarga ega. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyadagi katta yoshdagi insonlarning 24% qismi, kishi boshiga 200 funt sterlingdan ortiq qiymatga ega raqamli aktivga ega ekanligini aniqlangan [7].

Raqamli aktivlarning klassifikatsiyasi va vorislik rejimi

Adabiyotlarda raqamli aktivlarga nafaqat tokenlar va kriptovalyutalar, katta ma’lumotlar (Big Data), domen nomlari va ijtimoiy tarmoq akkauntlari, virtual o‘yin mulki, balki raqamli kontent, ya’ni veb-resurslarda saqlangan ma’lumotlar (matnlar, video va audio fayllar, grafik tasvirlar, animatsiyalar va hokazo) ham kiradi. Ammo bu, bizningcha, har doim ham mantiqqa to‘g‘ri kelavermaydi. Har qanday raqamli obyektni raqamli aktiv deb belgilash asosan 2014-yildagi Raqamli aktivlarga ishonchli shaxslarning kirishini belgilovchi qonunda (RUFADAA 2014) keltirilgan raqamli aktivlarning huquqiy ta’rifiga asoslanadi. Qonunning 870-moddasining “h” bandiga muvofiq “raqamli aktiv” shaxsning huquqi yoki manfaatdorligi bo‘lgan elektron yozuvni anglatadi deya ta’rif berilgan. Natijada, “Raqamli aktiv” bu kompyuter yordamida elektron tarzda saqlash va uzatish mumkin bo‘lgan, mulk huquqi bilan egalanishi va shu bilan bog‘liq mulkdorlik hamda foydalanish huquqlariga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday narsa hisoblanadi [8].

Ilmiy manbalar tahlili asosida raqamli aktivlarni meros huquqi nuqtayi nazaridan uchta asosiy toifaga ajratishimiz mumkin:

Iqtisodiy (mulkiy) aktivlar: Kriptovalyuta va tokenlar. Bular universal huquqiy vorislik obyekti bo‘lib, ularning o‘tishi texnik “kalit” (private key)

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

uzatilishiga bog‘liq [1].

Kontent-aktivlar: Elektron kutubxonalar, o‘yinlardagi virtual buyumlar. Ularning o‘tishi ko‘pincha platforma bilan tuzilgan litsenziya shartnomasi (EULA) orqali cheklanadi.

Shaxsiy-identifikatsiya aktivlari: Elektron pochta va ijtimoiy tarmoq akkauntlari. Bularning meros bo‘lib o‘tishi vafot etgan shaxsning shaxsiy siri va xat-xabarlar daxlsizligi huquqi bilan to‘qnash keladi [4].

Ushbu uchta toifadagi raqamli aktivlarni tasnif qilganimizda quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin. Ya’ni birinchi toifadagi raqamli aktivlar yoki boshqacha aytganda raqamli mulklar bevosita moddiy shaklda uchrovchi pul qiymatliklarining electron shakli bo‘lib, ushbu turdagi mulklarni meros qilib qoldirish universal meros huquqi asosida o‘tishi deyarli muammosizdek ko‘rinadi. Lekin ushbu turdagi raqamli aktivlarni boshqarish uchun maxsus kalit (private key) lar kerakligi va bu kalitlarning kodlari unutilishi ushbu meros huquqidan to‘liq foydalanishni cheklanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ushbu jarayonni huquqiy tartibga solishni yanada murakkablashtiradi.

Ikkinchi toifadagi raqamli aktivlar birinchi toifadagi kabi yuqori qiymatga ega mulk hisoblanmasa-da hozirgi kunda ularning ham intelektual mulk huquqi sohasida ma’lum bir qiymatga ega mulk sifatida qarashimiz mumkin. Uchinchi toifadagi raqamli aktivlar insonlarning shaxsiy hayoti bilan bog‘liq hisoblansa-da bular mutlaqo foydasiz, daromad olib kelmaydi deb ayta olmaymiz. Chunki ayrim mashhur shaxslarning ijtimoiy tarmoqdagi akkauntlari ham yaxshigina daromad keltirmoqda. Lekin ikkinchi tomondan ushbu shaxslarning akkauntlaridan meros sifatida merosxo‘rlari tomonidan foydalanish meros qoldiruvchining shaxsiy daxlsizlik huquqlari bilan bevosita qarama-qarshi keladi. Ushbu vaziyatda har bir raqamli aktivlarning xususiyatidan kelib chiqib, huquqiy tartibga soluvchi normani ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi. Raqamli aktivlarning keng tasnifi ularni shaxsiy va iqtisodiy toifalarga bo‘ladi. Shaxsiy raqamli aktivlarga pul qiymatiga ega bo‘lmasligi mumkin, lekin egasi uchun hissiy ahamiyatga ega bo‘lgan elementlar kiradi, masalan, elektron pochta xabarlari, shaxsiy fotosuratlar va videolar, raqamli kundaliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va shaxsiy bloglar. Buning aksiga, iqtisodiy raqamli aktivlarga haqiqiy yoki potentsial moliyaviy qiymatga ega bo‘lganlar kiradi, masalan, kriptovalyutalar (masalan, Bitcoin, Ethereum), raqamli hamyonlar, elektron tijorat hisoblari (masalan, Amazon, eBay), domen nomlari, onlayn o‘yinlardagi virtual buyumlar va YouTube kanallari, veb-saytlar hamda dasturiy ta’minot ilovalari kabi monetizatsiya qilingan raqamli kontentlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Raqamli merosni rasmiylashtirishda notariatning o‘rni

Notarial tizim raqamli aktivlarni qonuniy egallashda hal qiluvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Tadqiqot doirasida ushbu sohadagi asosiy muammolarni tahlilqilgan holda quyidagi muammolar aniqlandi:

Identifikatsiya qilish muammosi: Notarius meros qoldiruvchiga tegishli raqamli aktivlar mavjudligini mustaqil aniqlash imkoniga ega emas. Raqamli merosning asosiy muammosi – merosxo‘rlarning marhumga tegishli aktivlar mavjudligidan bexabar qolishidir. Shu sababli, milliy qonunchilikda notariuslarga raqamli aktivlar reyestrini yuritish yoki ularni qidirish bo‘yicha maxsus vakolatlar berish zarurati tug‘ilmoqda [5]. Buning uchun meros qoldiruvchining raqamli aktivlarini aniqlash lozim bo‘ladi. Bu esa murakkab

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

jarayon hisoblanadi. Ya’ni meros qilib qoldiruvchi hali hayot bo‘lsa bevosita uning raqamli aktivlarini aniqlash muammosiz ammo vafot etgan shaxsning raqamli aktivlari qancha miqdorda ekanligi hamda ulardan foydalanish kalitlarini mavjudligini aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi. Ko‘p hollarda buni aniqlash deyarli imkonsiz.

Vasiyatnoma siri va parollar: Raqamli aktivlarga kirish kodlarini vasiyatnomada ko‘rsatish xavfsizlik nuqtayi nazaridan xatarli. Chunki ushbu maxfiy kodlar oshkor etilishi natijasida raqamli aktivlar kiberhujumlarga uchrashi tabiiy.

Ushbu holatda xavfsizlikni ta’minlash uchun quyidagicha yechim berishimiz mumkin: “Raqamli vasiyatnoma” (Digital Will) institutini joriy etish lozim. Bunda notarius maxsus elektron depozitariy vazifasini bajarib, vafotdan keyin parollarni yoki “sovuq hamyon” (cold wallet) kalitlarini merosxo‘rga topshirish mexanizmini ta’minlaydi. Aynan ushbu yo‘l bilan raqamli aktivlarni o‘z merosxo‘rlariga xavfsiz tarzda topshirish mumkin bo‘ladi.

Huquqiy tahlil va qiyosiy o‘rganish

Hozirgi kunda shartnomaviy huquq (platforma qoidalari) va meros huquqi o‘rtasida kolliziya mavjud. Masalan, Apple yoki Meta kompaniyalari akkauntni o‘zganing mulki emas, balki “vaqtinchalik foydalanish huquqi” deb hisoblaydi [2]. Ushbu holatda insonlar shaxsiy akkauntlarini meros sifatida farzandlari yoki boshqa merosga da’vo qilish huquqi bor shaxslarga o‘tkazilishi cheklanishi mumkin. Shuningdek, “Raqamli aktivlar klassik ashyoviy huquq obyektlaridan farq qilib, “gibrid” tabiatga ega. Masalan, YouTube kanali ham intellektual mulk (kontent), ham iqtisodiy aktiv (monetizatsiya), ham shaxsiy daxlsizlik obyekti (shaxsiy akkaunt) hisoblanadi. Bu esa ularni taqsimlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni talab qiladi”. Yuqorida aytilganidek, Apple va Meta o‘z foydalanuvchilarini vaqtincha foydalanish huquqi deb hisoblasa-da boshqa ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituv daromad topuvchi shaxslar uchun bu ma’lum bir qiymatga ega meros (nomoddiy mulk) hisoblanishi tabiiy holat.

AQSHning RUFADAA qonuni ushbu muammoni foydalanuvchiga platforma ichida “merosxo‘r kontakt” (Legacy Contact) belgilash imkonini berish orqali qisman hal etgan. O‘zbekiston milliy qonunchiligida ham ushbu tajribani qo‘llash va IT-platformalarni merosxo‘rlar bilan hamkorlik qilishga majburlovchi normalarni kiritish talab etiladi.

Xalqaro huquqiy kolliziyalar

Bugungi kunda raqamli aktivlarning yana bir murakkab jihati ularning ma’lum bir yurisdiksiya bilan chegaralanmasligidir. Ya’ni Raqamli meros masalasi milliy chegaralar bilan cheklanib qolmaydi. Misol uchun foydalanuvchi O‘zbekistonda yashagan, ammo uning aktivi (masalan, kriptovalyuta birjasi yoki ijtimoiy tarmoq serveri) AQSH yoki YI yurisdiksiyasida bo‘lishi mumkin. Bu esa ushbu sohaga xalqaro xususiy huquq normalarini unifikatsiya qilish hamda xalqaro platformalarning meros huquqiga oid milliy sud qarorlarini tan olish mexanizmini ishlab chiqish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Xulosa

Raqamli transformatsiya davri mulk, maxfiylik va meros haqidagi tushunchalarimizni tubdan o‘zgartirdi va raqamli makonning keltirayotgan muammolarini hal qilish uchun huquqiy tushunchalarni qayta aniqlash zaruratini tug'dirmoqda. Garchi raqamli aktivlar shaxsning merosining tobora

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

muhimroq qismiga aylanayotgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston hamda boshqa ko‘pgina davlatlar huquqiy tizimlari hanuzgacha bu sohada yetarli tartib-qoidalarni joriy etmagan. Ochiq huquqiy me’yorlarning yo‘qligi, meros huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi va vafot etgan shaxs hamda merosxo‘rlarning huquqlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ko‘plab huquqiy bo‘shliqlarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi takliflar ilgari surish mumkin:

Qonunchilikka o‘zgartish: O‘zbekiston Respublikasi FKning 1113-moddasiga raqamli huquqlarni meros tarkibiga kiritish bo‘yicha aniq norma qo‘shish lozim.

Notarial amaliyot: “Notariat to‘g‘risida”gi qonunda notariuslarga raqamli aktivlar va ularga kirish vositalarini depozitga saqlash vakolatini berish. Bu huquqning berilishi raqamli aktivlardan foydalanish imkonini beruvchi “private key” larni xavfsiz ravishda merosxo‘rlarga topshirish imkonini beradi.

Tasniflash tizimi: Meros bo‘lib o‘tadigan raqamli aktivlarni ularning huquqiy rejimiga (mulkiy yoki shaxsiy) qarab tabaqalashtirish tartibini joriy etish.

Shuningdek, Raqamli transformatsiya davrida meros huquqi faqatgina: kimga nima qoladi, degan savolga emas, balki bu ma’lumotlarga qanday texnik kirish (access) ta’minlanadi, degan savolga ham javob berishi kerak. Ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib brogan soha mutaxasislari ta’kidlaganidek, qonunchilikka raqamli aktivlar boshqaruvchisi (digital executor) institutini kiritish ushbu muammoning optimal huquqiy yechimi bo‘la oladi [6].

Foydalanilgan manbalar

1. G‘ulommamatova P. A. Raqamli aktivlar tushunchasi va klassifikatsiyasi // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2024. – Vol. 3. – Issue 5. – P. 174-177.

2. Chowdhury J. Digital Legacy: Redefining Estate Law in the Age of Social Media and Virtual Assets // Legal Research & Analysis. – 2025. – 3(1). – P. 51-56.

3. Kharitonova J. S. Digital Assets and Digital Inheritance // Law & Digital Technologies. – 2021. – Vol. 1. – No. 1. – P. 19-26.

4. Chetyrko E. K. On the issue of the problem of inheritance of digital assets // Agrarian and land law. – 2024. – No. 11(239). – P. 152-154.

5. Official website of the Federal Notary Chamber. “Procedure for inheritance of digital assets: opinion of notary experts”. [Onlayn resurs]: https://notariat.ru/ru-ru/news/poryadok-nasledovaniya-cifrovyh-aktivov-mnenie-ekspertov-notariata (murojaat sanasi: 10.02.2023).

6. Akramov, A. A., et al. (2024). The Impact of Digitalization in Inheritance Law. *Qubahan Academic Journal*, 4(3), 282-293. https://doi.org/10.48161/qaj.v4n3a863

7. Rackpace Hosting. 2011. U Generation Cloud: A social study into the impact ofcloud-based services on everyday UK life.F Accessed April 15, 2021.https://slidex.tips/download/generation-cloud-a-social-study-into-the-impact-of-cloud-based-services-on-every

8. Ibanez, Luis-Daniel Ibanez, Michal R. Hoffman and Taufiq Choudhr. 2018. Blockchains and Digital Assets. https: //www.eublockchainforum. eu/sites /default/files/research paper/blockchains_and_digital_assets_june_version.pdf